

## ITALIYADA PROTO-RENESSANS KIRIB KELISHI

**Odilova Sayyora Djavdatovna**

*O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,  
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti*

*Sanoat dizayni kafedrası katta o‘qituvchisi,*

**Abdulaxatova Ruxshona Jaxongir qizi**

*O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,  
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti  
Sanoat dizayni kafedrası talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XII-XIV asrlarda Italiyada shakllangan Proto-Renessans davri san’ati va uning o‘ziga xos estetik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot markazida o‘rta asr san’atidan to‘laqonli Renessans san’atiga o‘tish jarayonidagi realizm, fazoviy chuqurlik va anatomik aniqlik kabi innovatsion o‘zgarishlar yotadi. Maqolada Giotto, Duccio, Simone Martini kabi musavvirlar hamda Pisano va Lorenzetti oilasi vakillarining asarlari misolida diniy va ijtimoiy mavzularning dramatik hamda hayotiy ifodalanishi yoritilgan. Natijada, ushbu o‘tish davrining gumanistik qarashlarni shakllantirish va keyingi Uyg‘onish davri poydevorini yaratishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Proto-Renessans, Italiya, Giotto, Duccio, Simone Martini, Lippo Memmi, Ambrogio Lorenzetti, Pietro Lorenzetti, Nicola Pisano, Giovanni Pisano, realizm, diniy sahnalar, urban hayot, haykaltaroshlik, arxitektura, gotik element, oltin fon, dramatik sahna.

**Annotation:** This article scientifically analyzes the art of the Proto-Renaissance period, which emerged in Italy during the 12<sup>th</sup>-14<sup>th</sup> centuries, along with its distinct aesthetic characteristics. The research focuses on innovative changes such as realism, spatial depth, and anatomical accuracy during the transition from medieval art to the High Renaissance. Through the works of painters like Giotto, Duccio, and Simone Martini, as well as sculptors from the Pisano and Lorenzetti families, the article highlights the dramatic and lifelike expression of religious and social themes. Consequently, the study substantiates the significance of this transitional period in shaping humanistic views and laying the foundation for the subsequent Renaissance.

**Keywords:** Proto-Renaissance, Italy, Giotto, Duccio, Simone Martini, Lippo Memmi, Ambrogio Lorenzetti, Pietro Lorenzetti, Nicola Pisano, Giovanni Pisano, realism, religious scenes, urban life, sculpture, architecture, Gothic elements, gold background, dramatic scene.

Proto-Renessans - bu to'laqonli Renessansdan oldingi davrni anglatadigan san'at va madaniyat bosqichi bo'lib, u asosan XII-XIV asrlarda Italiyada shakllangan. Ushbu davmi ilmiy muomalaga ilk bor shveytsariyalik tarixchi Yakob Burkhardt kiritgan. Mazkur bosqich O'rta asr san'ati va Uyg'onish davri san'ati o'rtasidagi muhim o'tish davrini ifodalaydi. Ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazardan, mazkur jarayon asosan Toscana va Rim hududlarida, xususan, Florensiya, Siena, Venetsiya va Milan kabi shahar-davlatlarning jadal iqtisodiy o'sishi fonida rivojlandi. Boy savdogarlar va hunarmandlarning san'atga homiylik qilishi natijasida tasviriy san'atda innovatsion yangiliklar va gumanistik ilmiy qarashlar rivojlanishi uchun zamin yaratildi. Shuningdek, antiqa madaniyatga bo'lgan qiziqishning qayta tiklanishi keyingi Renessans gumanizmining boshlanish nuqtasi bo'lib xizmat qildi.

Ushbu tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil hamda san'atshunoslik tahlili metodlaridan foydalanildi. O'rta asrlar xristian ikonografiyasi va Proto-Renessans davrida yaratilgan asarlar qiyoslanib, rassomlar va haykaltaroshlarning asarlaridagi kompozitsion, anatomik va fazoviy yechimlar tizimli ravishda o'rganildi.

Proto-Renessans san'ati an'anaviy o'rta asr san'ati tamoyillaridan chekinib, o'ziga xos realizm xususiyatlarini namoyon etdi. Avvalo, tekis va ramziy ("ikonografik") tasvirlar o'rniga inson figuralarini tabiiy proportsiyalarda va hayotiy ifodali holatda tasvirlash amaliyoti joriy etildi. Asarlarda yorug'lik va soya o'yinlari orqali fazoviy chuqurlik va hajmiylik yaratildi. Diniy ramzlar saqlanib qolsa-da, ular tabiatga yaqin yuz ifodalari va anatomik to'g'rilik orqali realistlik tus oldi. Figura va fon orasidagi aloqalar chuqur fazoda tasvirlana boshladi. Ushbu tendensiyalar XIV asrda Markaziy Italiyada, ayniqsa, Florensiya va Sienada yaqqol ko'zga tashlandi.

Bu davrda figurativ rasmchilikning eng noyob namunalarini Giotto di Bondone (1267-1337) yaratdi. U o'z ijodi orqali antiqa realizm va hayotiy ifodani tasviriy san'atga qaytardi. Uning Padua shahrida joylashgan Arena Chapel (Cappella Scrovegni) freskalari (1303-1310) xristologik sahnalarni dramatik tarzda yoritib beradi. Xususan, "Lamentation" (Iso tanasini o'rab yig'layotgan sahna) asarida figuralarning tabiiy hajmi, uch o'lchamli fazo va chuqur psixologik emotsionallik ilg'or tarzda namoyish etilgan bo'lib, bu o'rta asr uslubidan tubdan farq qilardi. Shuningdek, "Ognissanti Madonna" (1310) asarida yorug'lik-soya o'yini orqali mutlaqo yangi tasviriy til shakllantirildi.

Siena maktabi asoschisi Duccio di Buoninsegna (1255/60-1319) o'zining "Maesta" (1308-1311) asarida dekorativ ranglar va lirik ifodani muvaffaqiyatli uyg'unlashtirdi. O'rta asr ikonografiyasi elementlari saqlanib qolgan bo'lsa-da, figuralar orasidagi tabiiy munosabatlar asarni renessans yo'nalishiga yaqinlashtirdi.

International gotik uslubini davom ettirgan Simone Martini (1284-1344) va Lippo Memmi (1291-1356) hamkorlikda yaratgan "Annunciation" (1333) asari oltin fon, oqimdagi liboslar,

nozik chiziqlar va dramatik pozalar orqali diniy voqeani estetik nafislik bilan namoyon etdi. Lippo Memmining "Madonna of Humility" kabi asarlari davr siymosiga o'ziga xos kompozitsiyalar qo'shdi.

Shuningdek, Ambrogio (1290-1348) va Pietro Lorenzetti (1280-1348) ijodida dunyoviy va ijtimoiy mavzular yetakchilik qildi. Ambrogio Lorenzetti Siena shahar hokimiyati binosi uchun ishlagan "Yaxshi va yomon hukmronlik" (Allegory of Good and Bad Government, 1338-1339) freskalarida shahar hayoti, mehnat va adolat kabi ijtimoiy masalalarni yoritdi. Pietro Lorenzetti esa o'z asarlarida spatial perspektiva (fazoviy qisqarish) va realistik manzara orqali harakat hissini oshirdi.

Skulptura sohasida Nicola Pisano (1220-1284) va Giovanni Pisano (1250-1315) klassik shakllarni qayta tiklashga ulkan hissa qo'shishdi. Nicola Pisanoning Pisa Baptistery (1259-1260) va Siena cathedral (1265-1268) minbarlari (pulpit) uchun yaratgan bo'rtma tasvirlari rim antik sarkofaglaridan ilhomlangan bo'lib, ular antika san'ati va gotika elementlarining mukammal sintezidir. Uning shogirdi va o'g'li Giovanni Pisano Pistoia shahridagi Sant'Andrea (1297-1301) uchun yaratgan minbarida esa dramatik hissiyotlar va gotik elementlar yanada kuchayganini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, arxitekturada antik proportsiyalar va gotik elementlar muvozanatlashib, uyg'unlashuv jarayoni kuzatildi.

**Xulosa:** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Proto-Renessans davri Italiya san'ati tarixida tub burilish yasagan va gumanistik qarashlar bilan boyigan muhim bosqichdir. Bu davrda antik madaniyatga qiziqishning ortishi, inson va tabiatni realistik, emotsional va anatomik aniqlikda tasvirlash tamoyillari 15-asr To'laqonli Uyg'onish davri poydevorini yaratdi. Aynan shu estetik va intellektual yutuqlar Masaccio, Brunelleschi, Donatello, Leonardo da Vinci, Mikelanjelo va Rafael kabi buyuk san'atkorlar daho sifatida shakllanishi uchun asosiy zamin bo'lib xizmat qildi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. <https://totalarch.ru> - Искусство Проторенессанса в Италии (13-14 вв.)
2. <https://coursehero.com/GiottodiBondone> - Giotto di Bondone
3. [https://artincontext.org/Proto\\_Renaissance](https://artincontext.org/Proto_Renaissance) - Proto-Renaissance
4. [https://arthistoryteachingresources.org/Proto\\_Renaissance\\_in\\_Italy](https://arthistoryteachingresources.org/Proto_Renaissance_in_Italy) - Proto-Renaissance in Italy (1200–1400)
5. <https://www.dailyartmagazine.com/proto-renaissance> - Proto-Renaissance 101: From Guilds to Giotto
6. Одилова С. Д. ЭЛИЗАБЕР ВИЖЕ-ЛЕБРЁН–МАФТУНКОР ПОРТРЕТЧИ МУСАВВИРА //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. –

2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 852-856. <https://cyberleninka.ru/article/n/elizaber-vizhe-lebryon-maftunkor-portretchi-musavvira>.

7. Одилова С. Д. ПРАВИЛО ЗОЛОТОГО СЕЧЕНИЯ //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 207-210. <http://academicsresearch.ru/index.php/MSRISJ/article/view/1964>.